SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 24 - iyun 174-9-131-Q/22 Shirin shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-maydagi “2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 242-son hamda viloyat hokimining 2022-yil 9-iyundagi 219-9-0-Q/22-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-maydagi 2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 242-son qarori ijrosini ta’minlash, mavjud muammolarni tezkor bartaraf etish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-maydagi “2022-2026-yillarda Sirdaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 242-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorning quyidagi ilovalariga muvofiq:

Sirdaryo viloyatida 2022-2026-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining maqsadli ko‘rsatkichlar parametrlari 1-ilovaga;

hududlarda aholi bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar davomida bildirilgan takliflar va aholini uzoq yillardan buyon qiynab kelayotgan mavjud muammolarni tezkor bartaraf etishga qaratilgan hamda amaliy tadbirlarni o‘z ichiga olgan “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga;

Sirdaryo viloyati shahar va tumanlarining ixtisoslashuvi, “o‘sish nuqtalari” va “drayver sohalari” 3-ilovaga;

Sirdaryo viloyati shahar va tumanlarida joriy yilda sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarining yig‘ma parametrlari 4-ilovaga;

2022-yilda viloyatda muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha kompleks tadbirlar 5 va 6- ilovalarga;

Sirdaryo viloyati shahar va tumanlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha

shakllantirilgan istiqbolli loyihalarning manzilli ro‘yxati 7-ilovaga;

Sirdaryo viloyatida 2022-2026-yillarda hududlarni kompleks rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash yuzasidan harakatlar rejasi 8-ilovaga muvofiq rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (I.Eshonqulov), investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi (lavozimiga ko‘ra), moliya bo‘limi (K.Keldibekov), tegishli shahar tashkilotlari, tijorat banklari, shahar hokimligi bilan birgalikda 1-ilovada keltirilgan 2022-yil uchun tasdiqlangan maqsadli ko‘rsatkichlar, ya’ni o‘sish sur’atlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 110,5 foizga, qishloq xo‘jaligida 101,4 foizga, xizmat ko‘rsatishda 106,6 foizga va qurilish ishlarida 110,5 foizga erishish uchun aniq manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Shuningdek, har yili 1-noyabrga qadar kelgusi yillar maqsadli parametrlarini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni va amalga oshirish “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash uchun viloyat hokimligiga kiritsin.

4. Shahar hokimining o‘rinbosarlari M.Kuvandikov, N.Alimova, Z.Abduvohidov, D.Umarova, lavozimga ko‘ra (investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i), zimmalariga 2-ilovaga muvofiq tasdiqlangan hududlarda aholi bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar davomida bildirilgan takliflar va aholini uzoq yillardan buyon qiynab kelayotgan mavjud muammolarni tezkor bartaraf etishga qaratilgan hamda amaliy tadbirlarni o‘z ichiga olgan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan tadbirlarning belgilangan muddatlarda va sifatli bajarilishini ta’minlash bo‘yicha shaxsiy mas’uliyat yuklansin.

Shahar hokimligi mas’ul xodimlari, shahar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (I.Eshonqulov) har oy yakuni bilan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan tadbirlarning ijrosi bo‘yicha shahar hokimligi idoraviy yig‘ilishlari muhokamasiga tahliliy ma’lumotlar kiritib borsin.

5. Shahar hokimining o‘rinbosari – Investitsiya va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i (lavozimga ko‘ra), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (I.Eshonqulov), tegishli shahar tashkilotlari, tijorat banklari, **bir hafta muddatda** 4-ilovada keltirilgan sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarining manzilli ro‘yxatini shakllantirsin hamda viloyat hokimligiga kiritsin.

bir hafta muddatda 4-ilovada keltirilgan, tasdiqlangan manzilli ro‘yxatga asosan shahar sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishning barcha bosqichlari, shu jumladan, loyihalarni foydalanishga topshirishning aniq muddatlari ko‘rsatilgan tarmoq jadvallari ishlab chiqilishini ta’minlasin.

6. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Kuvandikov, moliya bo‘limi (K.Keldibekov) bilan 5 va 6-ilovalarga muvofiq tasdiqlangan 2022-yilda viloyatda muhandislik-kommunikatsiya, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash tadbirlari doirasida byudjet mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarni belgilangan muddatlarda moliyalashtirsin.

Shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Z.Abduvohidov tegishli shahar tashkilotlari, bilan 5 va 6-ilovalarga muvofiq tasdiqlangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini qurish, ta’mirlash, obodonlashtirish ishlari bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining belgilangan tartibda davlat ekspertizasidan o‘tkazilishi hamda qurilish-montaj ishlari sifatli bajarilishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatsin.

Shahar iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (I.Eshonqulov) 5 va 6-ilovalarga muvofiq tasdiqlangan dasturlarga o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish zaruriyati yuzaga kelgan hollarda viloyat hokimligiga takliflar kiritib borsin.

7. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (I.Eshonqulov), tegishli shahar tashkilotlari bilan birgalikda 7-ilovaga muvofiq shakllantirilgan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning istiqbolli loyihalarini 2023-yilga mo‘ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish yuzasidan zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Bunda, 7-ilovaga kiritilgan obyektlarning loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun zarur mablag‘lar 2022-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida kelgusi yil loyiha-qidiruv ishlari uchun nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirish belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

8. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra:

har oyda shahar sektor rahbarlari Xalq deputatlari shahar kengashida Dastur ijrosi yuzasidan hisobot berib boradi;

har oy yakuni bilan shahar hokimining o‘rinbosarlari yo‘nalishlari bo‘yicha Xalq deputatlari shahar Kengashida Dastur parametrlari va ko‘rsatkichlari ijrosi hamda erishilgan natijalar muhokamasi qilib borilsin;

har chorakda shahar hokimining o‘rinbosarlari tegishli tashkilotlar va tijorat banklari ishtirokida joyiga chiqqan holda, o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha Dasturdagi vazifalarning bajarilishi yuzasidan o‘rganishlar o‘tkazib va zarur tadbirlarni belgilansin.

9. Shahar hokimligi bosh mutaxassisi (Y. Ergashov) bir hafta muddatda tegishli shahar tashkilotlari, tijorat banklari, shahar hokimligi bilan o‘zlari mas’ul bo‘lgan yo‘nalishlar hamda hududlar bo‘yicha mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlar yuzasidan harakatlar rejalarini puxta ishlab chiqsin, Xalq deputatlari shahar Kengashi majlisi muhokamasiga kiritsin.

10. Quyidagilarga:

Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirilishi, yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, byudjetga tushumlarni oshirish yuzasidan;

Shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jaligi, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l infratuzilmasi obyektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish va mukammal ta’mirlash tadbirlari hamda “Yangi O‘zbekiston” massivlari, ko‘p qavatli uy-joylar qurilishi va renovatsiya dasturlarini o‘z vaqtida sifatli amalga oshirish yuzasidan;

Shahar hokimining o‘rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i – investitsiya muhitini yaxshilash, investorlar hamda investitsiyalar, ayniqsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etilishi hamda eksport salohiyati oshirilishi, kichik sanoat zonalari rivojlantirilishi;

Shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari – ijtimoiy soha obyektlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim, sog‘liqni saqlash va sport sohalarida aholiga sifatli xizmat ko‘rsatish, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazilishi, hududlardagi yoshlar yetakchilari bilan tizimli ishlarni tashkil etish yuzasidan;

Shahar hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i – xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalarini oshirish, munosib kasb tanlashiga sharoit yaratish, gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning turmush va mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash ishlarini tashkil etish yuzasidan shaxsiy mas'uliyat yuklatilsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining sohalar bo‘yicha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi **S.Sultonov**